

## POKISTON YADRO DASTURINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Muqaddas Xojimurodova**

Tayanch doktoranti

Xalqaro munosabatlar kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: [zaynabismoilova07@gmail.com](mailto:zaynabismoilova07@gmail.com)

**Annotatsiya:** Pokistonning yadro dasturi XX asrning o’rtalaridan boshlab tinchlik maqsadlaridagi izlanishlardan harbiy maqsadlarda qo’llanuvchi qurollar yaratish yo’nalishida evolyutsiya qildi. Pokiston davlati tashkil topgan dastlabki yillardanoq ichki va tashqi omillar ta’siri tufayli yirik muammolarga to’qnash keldi. Ichki milliy muammolar va Hindiston bilan hal etilmagan bahslar tufayli Pokiston o’z milliy xavfsizligini ta’minlashda asosan harbiy yechimlarga murojaat qilishga va yadro quroliga ega bo’lish yo’lini tanlashga qaror qildi. Shundan buyon yadroviy qurollar mamlakat milliy xavfsizligi va geosiyosiy strategiyasining asosiy elementi bo’lib kelmoqda. Maqolada yadro fizikasi sohasidagi dastlabki tadqiqotlardan tortib, yadro texnologiyalari sohasidagi zamonaviy yutuqlargacha bo’lgan ushbu dasturni ishlab chiqishning asosiy bosqichlari ko’rib chiqiladi. Rivojlanish bosqichlarini yoritishda ichki va tashqi omillarning ta’siriga ham ahamiyat beriladi.

**Kalit so’zlar:** Bo’linish, Milliy xavfsizlik davlati, PAEK, A.Q.Xon, XTL, MQI.

## ESTABLISHMENT OF PAKISTAN'S NUCLEAR PROGRAM AND STAGES OF IT’S DEVELOPMENT

**Mukaddas Khojimurodova**

Ph.D. student

Department of International Relations

TSUOS

E-mail: [zaynabismoilova07@gmail.com](mailto:zaynabismoilova07@gmail.com)

**Annotation:** Pakistan's nuclear program evolved from peaceful research to the development of weapons for military purposes starting in the mid-20th century. From the early years of its establishment, Pakistan faced significant challenges due to internal and external factors. Due to internal national issues and unresolved disputes with India, Pakistan decided to primarily resort to military solutions to ensure its national security and opted to pursue the path of acquiring nuclear weapons. Since then, nuclear weapons have remained a key element of the country's national security and geopolitical strategy. This article examines the main phases of the development of this

program, from initial research in nuclear physics to modern achievements in nuclear technologies. In discussing the stages of development, attention is also given to the impact of internal and external factors.

**Key words:** Partition, “National Security State”, PAEC, A.Q.Khan, KRL, NCA.

## СОЗДАНИЕ ПАКИСТАНСКОЙ ЯДЕРНОЙ ПРОГРАММЫ И ЭТАПЫ ЕЁ РАЗВИТИЯ

**Мукаддас Хожимуродова**

Базовый докторант

кафедры Международных отношений

ТГУВ

E-mail: [zaynabismoilova07@gmail.com](mailto:zaynabismoilova07@gmail.com)

**Аннотация:** С середины 20-го века ядерная программа Пакистана эволюционировала из мирных исследований в военное оружие. С первых лет независимости Пакистан столкнулся с серьезными проблемами, обусловленными влиянием внутренних и внешних факторов. Из-за внутренних национальных проблем и нерешенных споров с Индией Пакистан решил прибегнуть к военным решениям для обеспечения своей национальной безопасности и выбрать путь приобретения ядерного оружия. С тех пор ядерное оружие стало основным элементом национальной безопасности и геополитической стратегии страны. В статье рассматриваются основные этапы развития этой программы: от первоначальных исследований в области ядерной физики до современных достижений в области ядерных технологий. При этом обращается внимание на влияние внутренних и внешних факторов в освещении этапов развития.

**Ключевые слова:** Разделение, ”государство национальной безопасности”, ПКАЭ, А.К.Хан, ИЛХ, НК.

### KIRISH.

Pokiston yadro dasturi Janubiy Osiyodagi global xavfsizlik va geosiyosiy aloqalar kontekstida alohida o‘rin tutadi. Ushbu dastur tashkil etilganidan buyon u nafaqat milliy qudrat ramzi, balki mintaqada strategik muvozanatni ta’minlashning muhim vositasiga aylandi. Mojarro va raqobat bilan tavsiflanuvchi murakkab mintaqaviy-siyosiy muhitda Pokistonning yadroviiy dasturi ichki va tashqi tahdidlarga javoban rivojlanib, uning evolyutsiyasi bir necha o'n yillar davomida shakllandi. Yadro

fizikasi sohasidagi dastlabki qadamlardan 1998-yildagi muvaffaqiyatli yadro sinoviga-cha bo'lgan davrda dastur bir necha bosqichlarni bosib o'tdi, ularning har biri ilmiy yutuqlar va xalqaro siyosatdagi o'zgarishlarga bog'liq. Bu jarayonda siyosiy yetakchilardan Zulfiqor Ali Bhutto, Ziyos ul-Haq, olimlardan M.A.Xon va A.Q.Xonlar muhim rol o'ynadi.

Ushbu maqolada biz Pokiston yadro dasturini rivojlantirishning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqamiz, uning shakllanishi va hozirgi holatiga turli omillarning ta'sirini tahlil qilamiz, shuningdek, uning mintaqaviy va global xavfsizlik uchun ahamiyatini muhokama qilamiz. Bu jihatlarni tushunish nafaqat Pokiston kelajagini, balki butun Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligini belgilovchi murakkab dinamikani tushunish uchun zarur deb hisoblaymiz.

### **METODLAR.**

Ushbu maqolani yozishda Pokiston davlatining tashkil topishi, uning tashqi siyosati va yadroviy dasturi mavzularini qamrab olgan asarlar va maqolalar matni tahlil qilindi, shuningdek tizimli tahlil, mantiqiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Pokiston yadroviy dasturining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida so'z borar ekan, eng avvalo, o'tmishga sal chuqurroq kirib borib, Britaniya Hindistonining bo'linishi va Janubiy Osiyo mintaqasida Pokiston nomli davlatning paydo bo'lishi jarayonlariga nazar tashlash lozimdir. Ikkala tomon uchun ham og'riqli va alamli, shuningdek, har ikkisining nazdida o'zi uchun adolatsiz bo'lgan bo'linish ushbu mintaqada bir biriga raqib bo'lgan ikki yirik kuchni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi hal etilmagan ko'pgina muammolar bo'linish voqeasiga borib taqaladiki, Pokiston va Hindiston munosabatlarini 1947-yilning avgust oyini eslamay turib hech qachon to'liq tushuntirib bo'lmaydi<sup>1</sup>. Bo'linish ikki davlatning kelajakdagi munosabatlariga salbiy ta'sir qildi.

---

<sup>1</sup> Kasuri Kh. M. Neither a Hawk nor a Dove: An Insider's Account of Pakistan's Foreign Policy. Oxford University Press, Pakistan 2015. - P.151.

Jamoaviy nizolar ko’rinishida bo’lgan hindu-musulmon-sikh kelishmovchiligi millatchilik harakatlari tomonidan asos qilib olinib, XX-asrning 40-yillarida musulmonlar uchun alohida davlat tuzish talablari ilgari surildi. Bo’linish uchun mas’ul bo’lgan vitse-qirol Lord Mauntbettening hokimiyatni «tezroq va samaraliroq» topshirishga urinishi ushbu jarayonni tartibsizliklar bilan o’tishiga sabab bo’ldi<sup>2</sup>. Yangi chegaralar rasman 1947-yilning 14-avgust kuni e’lon qilindi. Yangi chegaralar tufayli noto’g’ri davlatda qolib ketganlar sarosimaga tushib, har ikkala tomondan millionlab odamlar o’z davlatiga qochishga tushdi. Ommaviy ko’chish vaqtida o’zaro mojaro va zo’ravonliklar natijasida juda ko’p qurbonlar bo’ldi. Qurbonlarning miqdori borasida haligacha aniq sonni ko’rsatishning iloji yo’q, turli ma’lumotlarga ko’ra, besh million odam o’ldirilgan, o’n ikki million kishi o’z uylarini tark etgan, 7 millionga yaqin qochoqlar Pokistonga borib yetgan<sup>3</sup>.

Mustaqillikdan keyingi ilk kunlarda musulmonlar juda norozi edi - ular Hindiston tomonidan musulmon knyazlar hukmronlik qilgan, aholisi esa asosan hinduistlardan iborat bo’lgan Haydarobod va Junagadh, shuningdek, aholisi asosan musulmonlardan iborat bo’lgan holda hindu knyaz qo’li ostida bo’lgan Kashmirning Hindistonga berilishini adolatsiz deb hisoblashardi. Pokistonliklar Bengaliya va Panjobning ikkiga bo’linishini umuman kutishmagan edi, chunki buning natijasida o’rtada ming milyalik hudud Pokistonni ikkiga - G’arbiy va Sharqiy qismga ajratib qo’ygan edi. Buning ustiga harbiy va fuqarolik aktivlarining bo’linishidan ham norozilik mavjud edi. Pokiston qolgan naqd rupiyaning to’rtadan bir qismini olishi lozim edi, ammo Hindiston buni topshirishni turli bahonalar bilan ortga surardi. Harbiy bo’linish bundanda keskin bo’ldi. Pokiston o’ziga tegishi lozim bo’lgan qurol-yaroqlarning faqatgina uch

---

<sup>2</sup> Kasuri Kh. M. *Neither a Hawk nor a Dove: An Insider’s Account of Pakistan’s Foreign Policy*. Oxford University Press, Pakistan 2015. - P. 155.

<sup>3</sup> Aman A., Ullah A. *Mountbatten and «Moth-eaten Pakistan»: A case Study of the Partition of Punjab*. Russian Law Journal, Volume XI (2023) Issue 13s - P. 294-295.

foizini ola oldi, na tanklar va na qurol-yaroqlar yetib kelmadi<sup>4</sup>. Yetib kelgan qurol-yaroq va uskunalarning ham aksariyati ataylab buzilgan va foydalanish uchun yaroqsiz bo’lib chiqqan<sup>5</sup>. Armiyada xizmat qilayotganlarga esa Hindiston yoki Pokiston fuqaroligidan birini tanlash va o’zlariga berilgan qurol bilan o’sha tomonga o’tish imkoniyati berildi. Ko’pchilik musulmonlar Pokistonni tanladi va deyarli hamma hindlar va sikhlar Hindiston tomonga o’tdi<sup>6</sup>. Shu tariqa kuchli adolatsizlik hissi va o’zaro mojaro ustida ikki raqib davlat yuzaga keldi.

Bo’linish oqibatida ikki davlat o’rtasida hozirgacha davom etib kelayotgan Kashmir muammosi yuzaga keldi. Shuningdek, buning oqibatida ushbu hududlarda yashovchi aholi o’rtasida diniy va etnik mansublik bo’yicha ajratish chuqurlashdi. Bundan tashqari, o’z uyi, yeri va mol-mulkidan ayrilgan qochoqlarni oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj ashyolari bilan ta’minlash, ularga kompensatsiya to’lash bilan bog’liq qator iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Uzoq muddatli istiqbolda esa mintaqada siyosiy beqarorlik, Hindiston va Pokiston o’rtasida davomli raqobat, raqobat natijasida qurollanish esa oxir-oqibat mintaqaning yadroviylashuviga olib keldi. Bu esa o’z navbatida Janubiy Osiyodagi xalqaro munosabatlarga o’z ta’sirini o’tkazib kelmoqda.

Hindiston va Pokiston raqibligining asosiy sababi bo’linish oqibatida kelib chiqqan hududiy kelishmovchiliklar bo’lsa, yana bir sabab borki, mutaxassislar fikricha, ushbu raqiblikning qat’iyligi va davomli ekanligini ta’minlaydi. Bu milliy o’zlik va diniy e’tiqod tizimlarining murosasiz ekanligidir. Hindistonning demokratik va sekulyar davlatchilik tizimi va Pokistonning islomiy va avtoritar tizimi bir biriga mutlaqo zid bo’lib, pokistonlik harbiylar va siyosiy partiyalar diniy masalalardan o’z

---

<sup>4</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. P.19.

<sup>5</sup> Zaman A. The Troubled Pakistan-US relationship: a Diplomatic History, 1947-2012. Thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy in Politics. University of East Anglia, School of Politics, Philosophy, Language and Communication Studies. Norwich, 2014. - P. 19.

<sup>6</sup> Data on Division of British Indian Military Forces at the Time of Partition. March 19, 1959. [US President’s Committee to Study the US Military Assistance Program (Draper Committee), Box 17, Category V – Central Files (Military Assistance) Mar-Apr 1959 (3)] <https://www.eisenhowerlibrary.gov/sites/default/files/research/online-documents/declassified/fy-2012/1959-03-19.pdf>. 09.09.2024

siyosiy pozitsiyalari va manfaatlari yo’lida foydalanishga urinadilar<sup>7</sup>. Kanadalik tadqiqotchi Pol T.V. bularning qatoriga «Assimmetrik kuch» omilini qo’shadi. Bu raqiblik tomonlardan biri holdan toyguncha yoki umumiy xavf paydo bo’lguncha davom etaveradi degan xulosani beradi.

Pokiston davlati tashkil topgan dastlabki yillarda ichki tomondan milliy birlashuv va milliy o’zlik jihatidan yirik muammolarga to’qnash keldi. Pokiston tarkibiga kirgan Britaniya Hindistonining musulmonlar yashaydigan tarqoq viloyatlarini birlashtirib turadigan yagona narsa - bu hindlarning ustunligidan qo’rquv bo’lib, yangi davlat kun tartibida olti xil turli etnik guruhlar (Pokiston 1947-yilda 6 asosiy etnik guruhdan iborat edi: bengallar, panjobilar, pashtunlar, sindliklar, balochlar va mujohirlar, ya’ni Hindistondan ko’chib kelgan musulmon migrantlarni birlashtirish vazifasi turardi. Hindiston bilan raqiblikdan tashqari yagona bog’lovchi omil islom dini edi<sup>8</sup>. Sharqiy Pokiston hududida yashovchi musulmonlar bir qator masalalar bo’yicha G’arbiy pokistonliklar bilan kelisha olmadi, bu masalalar orasida eng asosiysi bengal tilining milliy til sifatida qabul qilinmagani bo’ldi. 1953-yilda bengallar bengal tilining urdu tili bilan bir qatorda ikkinchi milliy til etib belgilanishini talab qilib ko’chaga chiqishdi va natijada Dakka va Chittagongda ko’plab qurbonlar berildi. G’arbiy Pokistonda esa Panjob viloyatining markazi Lahor shahrida musulmon ulamolari Ahmadiy jamoasiga qarshi hujumlarni boshladi. Mutaassib musulmonlar Muhammad Ali Jinna tomonidan tashqi ishlar vaziri etib tayinlangan kelib chiqishi ahmadiylardan bo’lgan Zafarulla Xonni davlat lavozimiga noloyiq deb hisoblab, lavozimdan olib tashlashni talab qildilar. Bir vaqtning o’zida Pokistonga boshqa separatist kuchlar ham xavf sola boshladi. Balochistonda mahalliy qabilalar yangi federal tartibni qabul qila olmay qo’zg’olon ko’tardilar. Sind viloyati ham etnik va ijtimoiy-iqtisodiy tartibsizliklar o’chog’iga aylandi. Hindlar ko’chib ketgandan so’ng ko’p mulklarga egalik qila

---

<sup>7</sup> Paul T.V. Why has the India-Pakistan Rivalry been so enduring? Power Assymmetry and an Intractable Conflict. Security Studies, 15: 4, - P. 614.

<sup>8</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 68.

boshlagan sindliklarga Hindistondan kelgan muhojirlarning ko’pchiligi Sindga kelib joylashganligi, buning ustiga shimoldan panjobliklar va pashtunlarning ham kelib o’rnashayotganligi ma’qul kelmadi. Peshovarda esa pashtunlar Xon Abdul Jabbor Xonning mahalliy hukumatini qaytarishni va o’z viloyatlarini Shimoli-g’arbiy chegara viloyati emas, balki ularning etnik kelib chiqishi sharafiga Pashtuniston deb nomlashni talab qildilar. Pokistonning shimoliy qo’shnisi Afg’oniston 1947-yilda uning BMT a’zoligiga qabul qilinishiga qarshi ovoz berdi, 1949-yilda esa 1893-yilgi chegaralar haqidagi bitim (Dyurand chizig’i)ni bir tomonlama bekor qildi<sup>9</sup>. Kashmir uchun bo’lgan birinchi urushdagi mag’lubiyat esa G’arbiy Pokistonning sharqiy chegaralarida noaniqlik saqlanib qolishiga olib keldi.

Shu tariqa Pokiston davlati paydo bo’lishi bilan turli tahdidlar qurshovida qolgan edi. Pokistonlik tadqiqotchi Hasan Abbos fikricha, Nelson-Palmeyer izohlab bergan «milliy xavfsizlik davlati» ning xususiyatlari Pokistonda 1947-yildan 1972-yilgacha bo’lgan davrda yuzaga kelgan vaziyatni yaxshi tushuntirib beradi. Bunga ko’ra, milliy xavfsizlik davlatining birinchi ajralib turuvchi jihati - harbiylarning oliy hokimiyat tepasiga chiqishi, ular tomonidan jamiyatning umumiy yo’nalishini belgilab beruvchi richaglarning egallanishidir. Bundan tashqari, demokratik institutlarning shubha ostida qolishi, xavfsizlikning milliy tizimi yuzaga kelishi va harbiylarning siyosiy va iqtisodiy hokimiyatga ega bo’lishi, davlatning dushmanlari masalasining bo’rttirilishi va bu orqali o’ziga xos milliy o’zlikning yaratilishi, dushmanning o’ta salbiy qora bo’yoqlarda tasavvur qilinishi va nihoyat, dinning davlatni mafkuraviy qo’llab-quvvatlash uchun jalb qilinganligi - ushbu xususiyatlarning barchasi o’sha davr Pokistonida namoyon bo’lgan edi<sup>10</sup>.

Bu davrni tahlil qilar ekan, kelib chiqishi hindistonlik bo’lgan olim E.Tellis Pokistonning bugunga qadar xavfsizlik masalasiga giriftor bo’lganligini hayron qoladigan

---

<sup>9</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 20-21.

<sup>10</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 86.

holat emas deb baholaydi. Uning fikricha, o’zining yetmish yildan oshiqroq tarixi davomida Pokiston ichki bo’linish bilan yuzma yuz keldi, shuningdek tashqi tahdidlarni boshdan kechirdi. Tellis fikricha, Pokistonda harbiy yoki fuqarolik hokimiyati o’rnatilishidan qat’iy nazar davlatni saqlab qolish doimiy ustuvor vazifa bo’lib qoladi. Hindistondan qo’rquvning kuchliligi Pokistonni avvalboshdanoq yadroviy qurolni qo’lga kiritishga nomzod qilib qo’ygan edi<sup>11</sup>.

Pokiston yadro dasturining rivojlanish bosqichlarini tadqiqotchilar turli bosqichlarga bo’lib ko’rsatishadi. Misol uchun, hindistonlik tadqiqotchi V.N.Veda Pokiston yadro dasturi taraqqiyotini to’rt bosqichga ajratib ko’rsatadi: I-bosqich o’z ichiga 1950-1970-yillarni oladi, II-bosqich 1970-1990-yilgacha bo’lgan davr, «So’nggi faza» deb nomlangan III-bosqich va zamonaviy bosqichlarga ajratadi<sup>12</sup>.

Pokiston Milliy qo’mondonlik boshqaruvi maslahatchisi, Strategik rejalash bo’limining sobiq asoschi direktori, iste’fodagi general-leytenant Xolid Kidvay ikki aniq davrga bo’ladi: birinchi davr 1972-yildan 1998-yilning may oyigacha bo’lgan 26 yillik davr. Bu davrni u hokimiyat tepasida turgan hukumatlar va alohida shaxslardan qat’iy nazar to’g’ri siyosiy qarorlar qabul qilingan, ajoyib ilmiy natijalarga erishilgan davr deya ta’riflab, bu borada diplomatiyaning qoyilmaqom xizmatini e’tirof etadi. Ya’ni, Pokiston diplomatiyasi yadroviy harakatlarni yaxshi pana qilib, uni tashqi zararlardan himoya qilgan deydi. X.Kidvay nuqtai nazariga ko’ra, Pokiston yadroviy dasturining ikkinchi yadroviy erasi 1998-yilning may oyidan keyin boshlanib hozirgi kungacha hisoblanadi<sup>13</sup>.

Bir qator tadqiqotchilar esa yadroviy dasturning ildizlarini biz yuqorida bayon qilib o’tgan «Bo’linish» voqeasi va Pokiston davlati tashkil topgan ilk davrlarga bog’laydi. Bunday olimlar qatorida pokistonlik Hasan Abbas, Feroz Hassan Xon, Zia

---

<sup>11</sup> Tellis A.J. Striking Assymetries. Nuclear transitions in Southern Asia. Carnegie Endowment for International Peace. 2022. - P 136-137.

<sup>12</sup> Veda V.N. Pakistan’s Nuclear Weapons. Centre for Air Power Studies, New Delhi. 2012. - P 9-19.

<sup>13</sup> Speech by Lt. Gen. (Retd) Khalid Kidwai, Advisor, National Command Authority and Former DG SPD, on 25th Youme-e-Takbeer. May 26, 2023. <https://issi.org.pk/speech-by-lt-gen-ret-d-khalid-kidwai-advisor-national-command-authority-and-former-dg-spd-on-25th-youme-e-takbeer/>. 25.09.2024.

Mianlarni sanab o’tish mumkin. Bu davrda Pokiston hukumati mintaqada strategik balansga erishishga harakat qilib, armiyani kuchaytirishga asosiy e’tiborni qaratdi va harbiy yordam olish, strategik va iqtisodiy rejalashtirish masalalarida ko’mak olish uchun o’ziga ittifoqchilar izladi. Bu davrda davlat byudjetining 70 foizi mudofaa ehtiyojlariga yo’naltirilganini H.Abbos xavfsizlik muammosining ijtimoiy muammolardan ustun qo’yilganligi bilan izohlaydi<sup>14</sup>. Mustaqillikning birinchi o’n yilligida bu miqdor 50 foizdan tushmaganligini, 1960-yillarda ikki yilgina 50 foizdan pastga tushib, 1965-yilgi urushdan sal oldin yana oshganligini Z.Mian rasmiy statistika (50 Years of Pakistan in Statistics, Federal Bureau of Statistics, Government of Pakistan, 1997) ga asoslanib qayd etadi<sup>15</sup>.

Pokiston yadro dasturining tarixini tahlil qilgan holda uning rivojlanish bosqichlarini belgilashga harakat qilar ekanmiz, birinchi bosqichga 1947-yildan 1971-yilgacha bo’lgan davrni shartli ravishda kiritishimiz mumkin. Bu davrni F.H.Xon «istaksiz bosqich» deb nomlaydi, chunki yadro quroliga erishish haqida hali aniq qarorlar yo’q edi, davlatda xavfsizlikni ta’minlash va qurollanish, o’z hududiy yaxlitligini ta’minlash masalasi ustuvor vazifaga aylangan edi. Yuqorida qayd etganimizdek bo’linishdan so’ng Pokiston hukumati mudofaa salohiyatini oshirish va o’z texnologiyalarini yaratish zaruriyatini angladi. Sovuq urushning dastlabki yillarida AQSh mintaqada SSSRga qarshi ittifoq tuzish maqsadida 1953 va 1954-yillarda Pokiston bilan bir qancha harbiy shartnomalarni imzoladi, natijada Pokiston Janubi-sharqiy Osiyo shartnomasi tashkiloti (SEATO) va Bag’dod pakti (CENTO)ga qo’shildi. AQSh Sovet Ittifoqiga qarshi turishni ko’zlagan bo’lsa, Pokiston uchun AQSh bilan hamkorlik Hindistonga samarali qarshilik ko’rsatish uchun harbiy ashyolar va professional tayyorgarlikka erishishni anglatar edi. Bu vaqtda mudofaa

---

<sup>14</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 88.

<sup>15</sup> Mian Z. Fevered with Dreams of the Future: The Coming of the Atomic Age to Pakistan. Published in South Asian Cultures of the Bomb, Itty Abraham, ed., Indiana University Press, Bloomington, 2009, pp. 20-40

vaziri lavozimini egallagan armiya qo’mondoni general Ayub Xon hech qanday konstitutsion cheklovlersiz hokimiyatni o’z qo’liga olishga va davlatning bor diqqatini Hindiston tahdidi va Kashmir muammosiga qaratish, AQShni esa Sovetlarga qarshi turishda Pokistonning qo’l kelishiga ishontirishga muvaffaq bo’ldi<sup>16</sup>. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, aynan mana shu vaqtlardan AQSh va Pokiston o’rtasida sirli va bahsli, turli inqirozlarni boshdan kechirgan o’ziga xos ikki tomonlama munosabatlar boshlangan edi.

Bu davrda yadro qurolining dahshatli qurol ekanligi va unga ega bo’lgan davlatning mutlaq harbiy ustunlikka erisha olishi, shuningdek, atomning tinch maqsadlarda qo’llanish imkoniyatlari borasidagi g’oyalar dunyoda keng tarqalib ulgurgan edi. Ushbu texnologiyani birinchi bo’lib qo’lga kiritgan AQSh uni tinchlik maqsadlarida qo’llash masalasini ilgari sura boshladi. 1953-yilning dekabrda AQSh prezidenti D.Eyzenhauer BMT Bosh Assambleyasida o’zining «Tinchlik uchun atom» nutqi orqali atom energiyasini qishloq xo’jaligi, meditsina va boshqa sohalarda qo’llash uchun ekspertlarning mobilizatsiya qilinishini, asosiy e’tibor esa dunyoning elektr energiyasi tanqisligini boshdan kechirayotgan mintaqalariga qaratilishini e’lon qildi.

Shu o’rinda, qayd etish kerakki, bu davrda Pokistonda bor yo’g’i oltita universitet bo’lib, olimlar va injenerlar yetishmas edi. Bo’linishdan oldin Hindistonda Ilmiy va sanoat izlanishlari direktorati mavjud bo’lib, bir qancha laboratoriyalarga asos solingan edi. Ammo Hindiston ikkiga bo’lingandan so’ng, ushbu tizim to’liq Hindiston hududida qolib ketdi. Mustaqillikdan so’ng Pokiston o’zining xuddi shu nomdagi tashkilotini tuzdi. 1953-yilning aprelida ushbu tashkilot doirasida Ilmiy va sanoat tadqiqotlari kengashi (CSIR) va 1920-yillarda Britaniyada fizika yo’nalishida tahsil olgan Nazir Ahmad boshchiligidagi Rejalashtirish kengashini tashkil qildi<sup>17</sup>.

F.H.Xonning yozishicha, Pokiston yadroviy intilishlarining birinchi o’n yilligi

---

<sup>16</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 91.

<sup>17</sup> Mian Z. Fevered with Dreams of the Future: The Coming of the Atomic Age to Pakistan. Published in South Asian Cultures of the Bomb, Itty Abraham, ed., Indiana University Press, Bloomington, 2009. - P 12.

Kembridj universitetini tamomlagan uch fizik olimning faoliyati bilan bog’liq. Bular Rafi Muhammad Chaudri<sup>18</sup>, Abdus Salam va Nazir Ahmad bo’lib, ular dastlabki bosqichda institutlarni tashkil qilib, pokistonlik olimlarning keyingi avlodini yetishtirib bergan. Ularning faoliyatiga baho berarkan, F.H.Xon Chaudrini ta’lim beruvchi, Abdus Salamni olim, Nazir Ahmadni esa administrator deb ta’riflaydi<sup>19</sup>. 1955-yilning 8-20-avgustida Jenevada o’tkazilgan Atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish bo’yicha birinchi konferensiyada Nazir Ahmad Pokiston delegatsiyasiga boshchilik qilgan edi. 1956-yilda Pokiston AQShning yuqorida tilga olingan “Tinchlik uchun atom” tashabbusiga javoban Pokiston atom energiyasi komissiyasi (PAEK)ni tashkil qildi va Nazir Ahmad uning birinchi raisi etib tayinlandi<sup>20</sup>.

Pokiston va AQSh Atom energiyasini tinch maqsadlarda qo’llash bo’yicha besh yillik hamkorlik kelishuvini 1955-yilning 11-avgustida imzoladi. Unga ko’ra, AQSh kichik tadqiqot reaktori, yoqilg’i uchun parchalanuvchi material, yadroviy tadqiqotlar va injenerlik bo’yicha texnik hisobotlar va hujjatlar arxivi, olimlar va injenerlar uchun tayyorgarlik kurslarini moliyalashtirishni taqdim etadigan bo’ldi<sup>21</sup>.

Zia Mianning ta’kidlashicha, 1961-yilga kelib PAEK AQSh yordami doirasida xorijda tayyorgarlikdan o’tgan 144 ta olim yoki injenerga ega bo’lgan edi. Ushbu olimlar orasida 1972-yilda PAEKning raisi bo’lgan va Pokistonning yadroviy qurollar dasturini yo’lga qo’yish vazifasini olgan Munir Ahmad Xon ham bor edi<sup>22</sup>. H.Abbos ham

---

<sup>18</sup> Shuningdek, taniqli yadro fizikasi olimi Samar Mubarakmand Rafi Chaudrini «Pokiston yadro dasturining haqiqiy otasi» deb atagan. H.Abbosning izohlashicha, bu fikr 1998-yilning noyabrida Lahordagi Panjob universitetidagi nutqda aytilgan bo’lib, oddiy injener bo’lgan A.Q.Xonni «yadroviy bomba otasi» deb nomlanishiga kinoya deb tushunish mumkin. S.Mubarakmandning o’zi ham Munir Ahmad Xon, Ishfaq Ahmad, Javed Arshad Mirza, G.D. Alam, Tahir Husayn, Pervez Batlar qatori Chaudrining shogirdlaridan bo’lgan.

<sup>19</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 27.

<sup>20</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 28.

<sup>21</sup> Mian Z. Fevered with Dreams of the Future: The Coming of the Atomic Age to Pakistan. Published in South Asian Cultures of the Bomb, Itty Abraham, ed., Indiana University Press, Bloomington, 2009. - P 14.

<sup>22</sup> Mian Z. Fevered with Dreams of the Future: The Coming of the Atomic Age to Pakistan. Published in South Asian Cultures of the Bomb, Itty Abraham, ed., Indiana University Press, Bloomington, 2009. - P 15.

yuzlab pokistonlik talabalarning «Tinchlik uchun atom» dasturi doirasida chet ellarda ta’lim olib kelganining ahamiyatini qayd etib o’tgan<sup>23</sup>. Shuningdek, yana bir tadqiqotchi Mansur Ahmedning qayd etishicha, 1960-yillarda xorijga o’qishga jo’natilgan 600 nafar olim va injenerlardan 1967-yilga kelib 106 tasi PhD darajasi bilan qaytib kelgan<sup>24</sup>.

PAEK faoliyatining ilk davrlarida uning birinchi raisi Nazir Ahmad AQSh tomonidan berilgan kichik reaktorning faqat ilmiy tadqiqot va amaliyotlar uchungina yarashini, elektr energiya olish uchun esa og’ir suvda ishlaydigan kattaroq reaktor kerakligini asoslab berdi va uni qo’lga kiritishga ko’p harakat qildi. AQSh bu kabi reaktorni Pokistonga sotishni istamasdi, chunki ushbu texnologiyaning qoldiqlaridan harbiy maqsadlarda foydalansa bo’lardi va bu yadroviy qurollarning tarqalishi xavfini tug’dirishi mumkin edi.

Pokiston yadro dasturining 1960-yillardagi shakllanishi va rivojida prezident Ayub Xon, vazir Zulfiqor Ali Bhutto va olimlardan doktor Abdus Salom va PAEK raisi doktor Ishrat Husayn Usmani belgilovchi rol o’ynadi. Ayub Xon va Z.Bhuttoning ichki siyosiy masalalar va milliy xavfsizlik muammolari bo’yicha qabul qilgan qarorlari yangi strategik alyanslar tuzilishi, harbiy inqirozlar va urushlarga olib keldi, shu bilan birga, mamlakatda yadroviy diskursga asos soldi. Abdus Salom va Usmani esa tinch va harbiy maqsadlarda foydalanish uchun fan va texnologiyalarning rivojlanish yo’nalishini aniqlab berdi. Xalqaro hamjamiyat harbiy maqsadlarda qo’llanuvchi yadroviy texnologiyalar tarqalishining oldini olish yo’llarini muhokama qilayotgan bir davrda ushbu to’rt shaxs yadroviy siyosatni olib bordi<sup>25</sup>.

Chet ellarda ta’lim olib kelgan mutaxassislarni ish bilan ta’minlash va yangi kadrlarni tayyorlash zaruriyati tufayli Pokiston yadroviy fan va texnologiyalar instituti

---

<sup>23</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 126.

<sup>24</sup> Ahmed M. Pakistan’s Pathway to the Bomb. Ambitions, Politics and Rivalries. Georgetown University Press, 2022. - P 20.

<sup>25</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 33.

(PINSTECH) ga asos solindi. Dunyoga taniqli arxitektor E.D.Stoun tomonidan loyihalashtirilgan institut binosi poydevorini o’sha davrda Sanoat va mineral resurslar vaziri bo’lgan Z.Bhutto 1963-yilning 20-aprelida qo’yib berdi. PINSTECHda 5 megavatli PARR-1 reaktori o’rnatildi va 1966-yilning 22-iyunida to’la quvvatda yadro energiyasini ishlab chiqardi. I.Usmani yetkazib beruvchi hamkorlarni jalb qilish maqsadida qat’iyat bilan Pokiston yadro energiyasi istiqbollari marketingini olib borar edi. 1962-yilda Pokiston Karachida AES qurish bo’yicha Kanada bilan muzokaralarni boshladi. 1964-yilda kelishuvga erishilib, 23 mln. Kanada dollari miqdoridagi qarz (shu bilan birga, kredit hisobidan 24 mln. Kanada dollari) berish bilan birga Kanada Pokistonga mutaxassislar tayyorlab berish va zavod (AES) ni ishga tushirib berishga va’da berdi. 1965-yilda Kanadaning General Electric Kompaniyasi 137 megavatli Karachi AES (KANUPP)ni qurib topshirish bo’yicha PAEK bilan shartnoma imzoladi. 46 ta mutaxassis Karachi AESda ishlash uchun malaka oshirdi va zavod 1972-yilda ishga tushdi<sup>26</sup>.

60-yillarda yadroviy diskurs davom etdi, bir tomondan byurokratiya yadroviy intilishlarni kengaytirish va harbiy yo’nalishda rivojlanish tomon burilishga qarshi bo’lsa, Bhutto va uning bir nechta hammaslamlari (jumladan, Munir Ahmad Xon) agressiv xavfsizlik siyosati tarafdori edi, Usmani va Abdus Salamlar ehtiyotkorlik bilan ushbu loyihani kengaytirish tarafdori edi. Bu orada Hindistonning o’z yadroviy dasturini kengaytirishi va Yadroviy klubga kirishi ehtimollari ham muhokama qilina boshlandi. Shu maqsadda 1968-yilning 17-iyunida Yadroviy tiyib turish qo’mitasi tashkil qilindi. Ushbu qo’mitaning 1968-yil 10-noyabrdagi yig’ilishida quyidagi qarorga kelindi: birinchidan, Pokiston yadroviy tiyib turish masalasidan uzilmagan uzoq muddatli yadroviy energiya dasturiga ega bo’lishi lozim; ikkinchidan, Pokiston BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ma’qullangan Yadroviy qurollarni tarqatmaslik

---

<sup>26</sup> Ahmed M. Pakistan’s Pathway to the Bomb. Ambitions, Politics and Rivalries. Georgetown University Press, 2022. - P 23-24.

shartnomasini Hindiston imzolamay turib imzolamaydi; uchinchidan, plutoniy yo’nalishini rivojlantirish mumkin<sup>27</sup>.

Xitoyning yadroviy sinovlarni o’tkazishi Janubiy Osiyodagi xavfsizlik vaziyati uchun muhim voqea bo’ldi. Hindiston buni xavotir bilan qabul qildi va mamlakatda boshlangan yadroviy muhokamalar natijasi o’laroq bosh vazir L.B.Shastri «Tinch maqsadlarda yadroviy portlashni tadqiq etish (Study of Nuclear Explosion for Peaceful Purposes - SNEPP) loyihasini ma’qulladi. 1965-yildagi Hindiston-Pokiston urushi Kashmir muammosini hal qila olmadi. Hindistonning yadroviy faoliyati va hududiy bahslarni hal qilish bo’yicha Pokistonning muvaffaqiyatsiz urinishlari yadroviy qurol tashabbuskorlarini bomba yaratish uchun kuchli lobbi qilishlariga olib keldi. Bhuttoning Manchester Gardianga bergan intervyusidagi «o’t yeyish» haqidagi mashhur jumlas<sup>28</sup> aynan 1965-yil vaziyatida aytilgan edi<sup>29</sup>.

Pokiston yadroviy dasturi tarixidagi 1971-yildan 1980-yilgacha bo’lgan davrni rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda «Izlanishlarni chuqurlashtirish» davri deb shartli ravishda nomlash mumkin. Chunki aynan shu davrda Pokiston yadroviy energiya bilan bir qatorda yadro quroli yo’nalishini ham birdek rivojlantirish yo’lida katta sa’y-harakatlar olib bordi. Bu borada ba’zi tadqiqotchilar boshqacha nomlanishlarni ham taklif qiladi. Masalan, pokistonlik olim H.Abbos aynan shu davrni «Muhim bosqich» (Critical phase) deb ataydi<sup>30</sup>.

Yadro dasturining yo’nalishi va ko’lamidagi bosqichma-bosqich va barqaror o’zgarishlar 1971-yil dekabr oyida Hindiston bilan urush va Sharqiy Pokistonning

---

<sup>27</sup> Ahmed M. Pakistan’s Pathway to the Bomb. Ambitions, Politics and Rivalries. Georgetown University Press, 2022. - P 28-29.

<sup>28</sup> To’liq jumla ingliz tilida: “If India makes an atom bomb, then even if we have to feed on grass and leaves—or even if we have to starve—we shall also produce an atom bomb as we would be left with no other alternative. The answer to an atom bomb can only be an atom bomb.” Ma’nosi - Agar Hindiston atom bombasini yaratsa, unda hattoki o’t-o’lanlar yeyishimizga to’g’ri kelsa ham - yoki hatto och qolishimizga to’g’ri kelsa ham - biz ham atom bombasini yaratishimiz kerak, chunki bizda boshqa muqobil yo’l yo’q. Atom bombasiga javob faqat atom bombasi bo’lishi mumkin. (Muallif tarjimas)

<sup>29</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 59.

<sup>30</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 102.

ajralib chiqishidan so’ng sodir bo’ldi. Ushbu voqea yadroviy millatchilarga dasturni nazorat qilish va Pokistonni yadroviy qurollarni rivojlantirish yo’nalishiga olib chiqish uchun yo’l ochdi. F.H.Xon fikricha, Pokistonning yadro quroliga intilishining asosida xalqaro yakkalanish (izolyatsiya), milliy o’zlik (Identity) bilan bir qatorda «milliy tahqirlanish» yotadi. Tahqirlanish deganda olim 1971-yildagi uchinchi Hindiston-Pokiston urushidagi mag’lubiyatni nazarda tutadi. Pokiston uchun - Dakkaning qulashi, Sharqiy Pokistonning yo’qotilishi va Hindiston tomonidan 90 ming pokistonlik harbiylarning asirga olinishi jamoaviy xotiraga muhrlangan voqeadir<sup>31</sup>. Aynan shu tarixiy mag’lubiyat va strategik jihatdan yakkalanib qolish Pokistonga AQSh kabi ittifoqchilar va chetdan yordam kelishiga ishonish sarob ekanligini ko’rsatdi va yadro quroli tarafdorlariga kuchli motivatsiya berdi.

Urushdan keyin Bhutto hokimiyatni o’z qo’liga oldi. Uning bu boradagi ilk ishlaridan biri - 1972-yilning 20-yanvarida Mo’lton shahrida barcha olimlar ishtirokida uchrashuv o’tkazib, PAEKning rahbarini o’zgartirib, to’g’ridan to’g’ri nazoratni o’z ixtiyorida qoldirish bo’ldi. PAEK rahbarligiga Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA)da ko’p yillik mehnat tajribasiga ega bo’lgan Munir Ahmad Xon tayinlandi. Bhutto Pokistonni yadroviy qurol dasturi tomon burishga qat’iy qaror qilgan edi, ammo bu yo’lda to’siqlar va ichki muammolar mavjud edi. Mamlakatda bittagina energetik reaktor (PARR-1 KANUPP) bo’lib, u ham hali ishga tushirilmagan edi. Buning ustiga urushdan keyin Dakkadagi PAEK tarkibiga kiruvchi Atom energiyasi markazi PAEKning 50% o’qitilgan xodimlari, kompyuterlar va boshqa obyektlari bilan Bangladesh hududida qolib ketgan edi. Shu bilan birga, 1970-yilda Yadro qurolini tarqatmaslik to’g’risidagi shartnoma kuchga kirib, tajribalar va texnologiyalarning tarqalishiga bir qancha norasmiy to’siqlar paydo bo’lishiga olib keldi. Ushbu shartnomaga qo’shilmagan Pokistonning yadroviy faoliyati unga nisbatan xavotirlarni yuzaga

---

<sup>31</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 36.

keltirdi, bu sharoit olimlardan ham, tashqi siyosat idorasi xodimlaridan ham ehtiyotkorlikni talab qilardi. 1974-yilda Hindistonning yadroviy sinovi Pokiston uchun imkoniyatlar eshigini yopdi deyish mumkin. Chunki shundan keyin AQSh hamkorlikni barcha darajalarda to’xtatdi va Kanada, Germaniya va Fransiya ham barcha shartnoma va kelishuvlarni bekor qilishga majbur qildi<sup>32</sup>.

Ushbu bosqichning dastlabki yillarida PAEK ixtiyorida uch dona yadro infratuzilmasi mavjud edi: PINSTECH, 137-MVli Karachi yadro energiyasi zavodi va Lahordagi Atom energiyasi va minerallar markazi Pokistonga uran rudasini qazib olish, qayta ishlash va uran oksidi («sariq tort» deb ham ataladi)ga aylantirish imkonini bera olardi, bu esa yoqilg’i siklining boshlang’ich bosqichi edi xolos. PAEKning yangi rahbari Munir Ahmad Xon o’z faoliyatini boshlagandan so’ng ikki oy ichida reja ishlab chiqib prezidentga taqdim etdi. Ushbu reja yadroviy yoqilg’i sikli ustidan to’liq nazorat o’rnatish va yadroviy bilimlarni qo’llash uchun ko’plab zavod va qurilmalarni o’rnatishni ko’zda tutardi<sup>33</sup>. Bu esa birdaniga ikki yo’nalish - yadroviy qurol va yadroviy energetikani rivojlantirish imkonini berardi.

Prezident Bhutto yadro dasturini moliyalashtirish uchun arab davlatlari va O’rta Sharq davlatlariga yuzlandi. Ushbu maqsadda u Eron, Saudiya Arabistoni, BAA, Turkiya, Suriya, Marokash, Misr, Jazoir, Tunis va Liviya bo’ldi. Shuningdek, shu vaqtda Xitoyga ham tashrif buyurdi. Ushbu davlatlar orasida Liviya bilan munosabatlar ahamiyatli bo’ldi. Liviya Pokistonga 1976 va 1982-yillar oralig’ida Nigerdan olingan 450 tonna uran oksidi yetkazib berganligi taxmin qilinadi. Uran va moliyaviy yordam evaziga Liviya Pokistonning yadro dasturiga to’liq kirishni maqsad qilgan, ammo muvaffaqiyatga erisha olmagan, Pokiston faqat yadroviy fizika olimlarini PINSTECHda o’qitib berishga rozi bo’lganligini F.H.Xon qayd etadi. Shuningdek, ushbu bosqichda G’arbdan yordam ola olmagan Pokiston o’z mahalliy salohiyatini ishga

---

<sup>32</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 96.

<sup>33</sup> Ahmed M. Pakistan’s Pathway to the Bomb. Ambitions, Politics and Rivalries. Georgetown University Press, 2022. - P 56.

solib geologik qidiruv ishlarini olib bordi, olimlar va injenerlar AESlarda yuzaga kelgan nosozliklarni o’zlari bartaraf etib, bir qancha yangi texnologiyalar va uskunalarni yaratdilar. Shu bilan birga, Kundian yadroviy yoqilg’i majmuasi (KNFC) va Chashmadagi yadroviy yoqilg’i ishlab chiqarish zavodining qurilishi pokistonlik olimlarning yutug’i bo’lib, bu ikki zavod Pokistonga yiliga 40 million dollar mablag’ni iqtisod qilish imkonini beradi<sup>34</sup>.

Aynan shu bosqichda olamshumul dong taratgan Abdul Qodir Xon Pokiston yadro dasturiga kirib keladi. Uning xorijda shakllanayotgan anchayin muvaffaqiyatli karyerasini tashlab, Pokistonga qaytib kelishini ba’zilar vatanparvarlik va millatchilik kayfiyatlari bilan, boshqalar esa diniy motivlar bilan izohlaydi. Umuman, Pokistonning yadroviy dasturi haqida so’z ketganda A.Q.Xon markaziy figura sifatida gavdalanadi. Uning noqonuniy faoliyati fosh etilgandan keyin u haqida bahsli munozaralar hozirga qadar davom etib kelmoqda va Xonning faoliyati haqida bir qator asarlar yozilgan<sup>35</sup>. Shunday tadqiqotchilardan biri bo’lgan G.Koreraning yozishicha, 1974-yildagi Hindistonning yadroviy sinovi A.Q.Xon uchun ham hal qiluvchi voqea bo’lgan bo’lishi mumkin. Shundan bir necha oy o’tib Xon Z.A.Bhuttoga maktub yozib, yadro dasturiga o’z hissasini qo’shish imkoniyatini taklif qiladi. Bhutto ushbu uchrashuvni uyushtirishni PAEKning raisi M.A.Xonga topshiradi. A.Q.Xon Bhutto va yana bir nechta muhim amaldorlar bilan uchrashgandan so’ng, unga yana bir qancha muddat Gollandiyada bo’lib turish va muhim maxfiy ma’lumotlar, chizmalarni qo’lga kiritish tavsiya etiladi. A.Q.Xon Belgiya universitetida metallurgiya sohasi bo’yicha falsafa doktori

---

<sup>34</sup> Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, California. 2012. - P 111-115.

<sup>35</sup> Gordon Koreraning «Bombalar savdosi. Yadro qurolining tarqalishi, global xavfsizlik va A.Q.Xon tarmog’ining yuksalishi va qulashi» (Shopping for Bombs. Nuclear Proliferation, Global Insecurity and the Rise and Fall of the A.Q.Khan Network, Oxford University Press, 2006), Levi Adrian va Ketrin Skot Klarklarning «Aldov. Pokiston, AQSh va yadroviy qurollarning maxfiy savdosi» (Deception. Pakistan, the United States, and the Secret Trade in Nuclear Weapons, New York, Walker & Company, 2007), pokistonlik olim Hassan Abbosning «Pokistonning yadroviy bombasi. Bo’ysunmaslik, tiyib turish va rad etish tarixi» (Pakistan’s Nuclear Bomb. A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. Penguin Random House, India, 2018) va h.k.

darajasini olgan bo’lib, URENCO - uranni boyitish konsorsiumining Gollandiya filialida ishlar edi. Bu yerda u sentrifug texnologiyasiga oid hisobotlar va ma’lumotlar bilan ishlaganligini bir nechta tadqiqotchilar qayd etadi. 1975-yilda A.Q.Xon josuslik faoliyati Gollandiya hukumatiga oshkor bo’lishidan qo’rqib, o’g’irlangan loyihalar bilan Pokistonga qochadi<sup>36</sup>.

Dastlab PAEK tarkibidagi laboratoriyada ishlashni boshlagan A.Q.Xon tez orada vaziyatdan qoniqmay rahbariyat (Bevosita rahbar Bashiruddin Mahmud va PAEK rahbari Munir Xon) bilan kelishmovchilikka borgani va o’ziga maxsus vakolatlar bilan to’liq mustaqillik berishni Bhuttodan iltimos qilganini yuqorida tilga olib o’tilgan deyarli barcha olimlar ta’kidlaydi. Shu tariqa Xonning o’ziga sentrifug loyihasi ustida ishlashi uchun Muhandislik tadqiqotlari laboratoriyasi (MTL) 1976-yil 31-iyulda tashkil etildi. MTL o’ta maxfiy loyiha bo’lib, u haqda bosh vazirdan tashqari faqat G’.I.Xon (mudofaa vaziri, keyinchalik Pokistonning prezidenti bo’lgan) xabardor edi. A.Q.Xonning o’zi ta’kidlashicha, u ushbu loyihani amalga oshirish uchun juda katta resurslar va imtiyozlardan foydalangan. Shuningdek, 10 000 nafar xodim ishlaydigan Kahuta obyekti ishchi xodimlarni yollashda ham mustaqillikka ega bo’lgan<sup>37</sup>.

Shu tariqa Xonning uranni boyitish bo’yicha loyihasi va Munir Xon boshchiligidagi PAEKning plutoniy loyihasi alohida ikki yo’nalishda rivojlanish bosqichiga o’tdi. A.Q.Xon 1978-yilning aprelida kichik miqdordagi uranni boyitishga erishdi. 1979-yilda ochilgan Kahuta zavodi ikki yil ichida ko’proq miqdorda boyitilgan uran ishlab chiqarishni boshladi<sup>38</sup>. Ayni vaqtda PAEK ham yadroviy reaktorlarni boshqarish, yoqilg’i ishlab chiqaruvchi zavodni rivojlantirish va uran konvertatsiyasini nazorat qilish bo’yicha hal qiluvchi muvaffaqiyatlarga erishdi. Uran qazib olishdan

---

<sup>36</sup> Fair C.C. Fighting to the End. The Pakistan Army’s Way of War. Oxford University Press, 2014. - P. 172.

<sup>37</sup> Khan A.Q. Unsung Heroes. <https://www.thenews.com.pk/print/17884-unsung-heroes> from 12 January 2015.

<sup>38</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 164.




Figure 1. PAEC and KRL Areas of Responsibility

tortib «sariq tort» bosqichigacha, gazga aylantirish va gazdan yana metall holatiga keltirish, maydalash va qurol tayyorlashning barchasi PAEK faoliyati doirasiga kiradi<sup>39</sup>. Keyinchalik A.Q.Xon nomi bilan nomlangan ''Xon tadqiqot laboratoriyalari'' (XTL) va M.A.Xon rahbarligidagi PAEK tizimi o'rtasida yadro dasturi doirasida yuzaga kelgan raqobatga amerikalik tadqiqotchi K.O.Klari taniqli olimlar P.Lavoy va F.H.Xonlar ilmiy maslahati bilan yozilgan o'z tadqiqotida alohida e'tibor berib, unga nosog'lom raqobat deb baho bergan va haqiqiy manzarani ko'rsatib beruvchi quyidagi chizmani keltirib o'tgan<sup>40</sup>:

Uranni boyitish uchun ichki kurash ketayotgan vaqtda Pokiston hukumatidagi va xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlar, shuningdek sanksiyalar - barchasi sentrifuglar loyihasiga ta'sir ko'rsatdi. 1977-yilning 5-iyulida Z.A.Bhuttoni qayta prezidentlikka olib kelgan saylovlardan norozilik namoyishlaridan keyin hokimiyatni harbiylar egallab oldi. Shundan keyin o'n bir yil davomida Pokistonni general Ziyoy ul-Haq boshqardi. Shuningdek, AQShda yadroviy qurollarni tarqatmaslik bo'yicha qattiq pozitsiyaga ega Jimmi Karter prezident bo'ldi. Uning siyosati haqiqatdan ham jahon yadro sanoatiga ta'sir ko'rsatdi, chunki eksport nazoratining yangi me'yorlari joriy

<sup>39</sup> Abbas H. Pakistan's Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 165.

<sup>40</sup> Clary C.O. The A.Q.Khan Network: Causes and Implications. Submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of MA in National security Affairs from the Naval Postgraduate School, 2005. - P. 31.

etildi, yangi eksport kartellari vujudga keldi va yadroviy qurollar tarqalishiga qarshi ishonchli me’yorlarni yaratish kampaniyasi tashkil topdi. AQShning ushbu siyosati Pokiston bilan ko‘p kelishmovchiliklar keltirib chiqardi. Pokistondagi harbiy to‘ntarishning o‘zi yana bir sanksiyalar to‘lqinini paydo qildi.

General Ziyu ul-Haq (1978-1988) davlat rahbarligini o‘z qo‘liga olgan vaqtda Bhutto kabi yadro dasturini to‘g‘ridan to‘g‘ri nazorat qildi. Pokistonlik tadqiqotchi H.Abbosning yozishicha, A.Q.Xon Ziyu ul-Haqa murojaat qilib, o‘z loyihasining favqulodda ahamiyatini tushuntirishga va MTL avtonomiyasini mustahkamlashga erishgan. Bu davrda Munir Xon va A.Q.Xonning shaxsiy adovati yanada kuchayib Pokistonning yadroviy majmuasida qat’iy institutsional raqobatni ham keltirib chiqardi. Ziyu ul-Haq esa bu vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qilgan. Bundan tashqari, H.Abbos va boshqa bir qator olimlarning ham ta’kidlashicha, bu orada Pokistonning Afg‘onistonga sovetlar bostirib kirgan davrda front yaqinidagi davlatga aylanganligi tufayli AQSh bosim o‘tkaza olmay qoldi. Bu Pokiston yadro dasturi uchun kutilmagan, ammo juda qimmatli qalqon vazifasini o‘tadi<sup>41</sup>.

AQShlik tadqiqotchi K.Feyr yozishicha, prezident Karterning milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha maslahatchisi Z.Bjezinskiy sovetlarni Afg‘onistondan siqib chiqarish uchun Pokistonning yordami kerakligini, buning evaziga esa Pokistonga ko‘proq kafolatlar va ko‘proq qurol-yarog‘ yordamini berish zarurligini maslahat beradi. Dastlab taklif qilingan yordam miqdori kamroq bo‘lgani uchun Ziyu ul-Haq uni rad etdi. Bir yil o‘tib AQShda prezident almashgandan so‘ng R.Reygan boshchiligidagi yangi ma’muriyat taklif qilingan iqtisodiy va harbiy yordam miqdorini sezilarli darajada oshirdi (bu miqdor 400 million dollardan 3,2 milliard dollarga ko‘tarilgan). Ziyu ul-Haq AQSh bilan Pokistonning yadroviy dasturi masalasini kelishib olishni iltimos

---

<sup>41</sup> Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018. - P 164.

qildi. Shu tariqa ikki orada yashirin kelishuv paydo bo’ldi: “Reygan ma’muriyati Islomobod bombani portlatmagancha Pokistonning yadroviy dasturi bilan yashashi mumkin”<sup>42</sup>.

1980-yildan boshlab Pokiston aynan yadroviy qurol ishlab chiqarish bosqichiga o’tgan desak adashmaymiz. Chunki shu davrdan boshlab OAVda va razvedka ma’lumotlarida Pokistonning yadroviy texnologiyalar va bomba ustida ishlayotgan bo’lishi mumkinligi haqidagi ogohlantiruvchi xabarlar paydo bo’lgan. Masalan, 1980-yilning iyun oyida BBC “706 loyihasi: Islom bombasi” nomli hujjatli filmni efirga uzatdi. AQShning Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB) 1981-yilning may oyida qo’lga kiritgan hujjatda prezident Ziyoyul-Haq A.Q.Xonga sovuq sinovlarga tayyor turish haqidagi yo’riqnomani jo’natganligi ma’lum bo’ldi<sup>43</sup>. Shuningdek, 1982-yilning iyun oyida Britaniya razvedkasi Pokistonning yadroviy qurol ishlab chiqarish uchun Xitoydan sezilarli yordam olganligi haqidagi ma’lumotlarni AQShlik hamkasblari bilan bo’lishgan<sup>44</sup>. Va 1982-yilning dekabrda Nyusvik (Newsweek) jurnali Pokistonning butun dunyo bo’ylab yadroviy ishlanmalar uchun texnologiyalarni sotib olayotgani haqida xabar berdi<sup>45</sup>. Ushbu dalillarning hammasi Pokistonning keyingi bosqichga o’tganligidan darak berardi.

Ayni shu bosqichda Afg’on epizodi Pokiston yadro dasturiga muhim ta’sir o’tkazdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Pokistonning strategik joylashuvi ushbu masalada uni AQSh uchun kerakli hamkorga aylantirdi va AQSh ma’muriyati Pokistonning yadro dasturiga ko’z yumib turishiga to’g’ri keldi. Pokiston yadroviy chegarani 1987-yilda bosib o’tdi, ammo bu davrdagi Reygan va Bush ma’muriyatlari 1987, 1988, 1989-yillarda ham Pokistonga nisbatan sanksiyalarni joriy etmaslik uchun Kongresga noto’g’ri ma’lumot berishda davom etdi. Qizig’i shundaki, 1990-yilda esa

<sup>42</sup> Fair C.C. *Fighting to the End. The Pakistani Army’s Way of War*. Oxford University Press, 2014. - P 171.

<sup>43</sup> Levy A. Scott-Clark C. *Deception. Pakistan, The United States, and the Secret Trade in Nuclear Weapons*. Walker & Company, New York. - P 199.

<sup>44</sup> Abbas H. *Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance*. 2018. - P 165.

<sup>45</sup> Fair C.C. *Fighting to the End. The Pakistani Army’s Way of War*. Oxford University Press, 2014. - P 174.

Sovet qo’shinlari Afg’onistondan chiqib ketgandan keyin prezident Bush Kongres oldida Pokistonning yadro quroliga ega emasligini tasdiqlashni rad etgandan so’ng Presler qonuni kuchga kirdi. Ushbu vaziyatda Pokiston yadro dasturi, birinchidan, ortiqcha bosimdan xalos bo’ldi. Ikkinchidan esa, G’arbning saxiy iqtisodiy va harbiy yordami bevosita yadroviy dastur foydasiga ishladi<sup>46</sup>.

Sovuq urushdan keyin Pokistonning strategik muhiti yanada noaniq bo’lib, milliy xavfsizlik uchun yadroviy tiyib turish siyosatiga ko’proq tayanishiga olib keldi. Pokistonning yadro dasturi Hindistonning harakatlaridan kelib chiqib rivojlanishda davom etdi va asosiy e’tibor u tomondan kutiladigan tahdidlarga qarshi turishga qaratilgan edi. Shuningdek, bu davrda Pokiston kuchli xalqaro bosim va AQSh tomonidan joriy etilgan jazo sanksiyalari xavfi ostida o’zining harbiy yadro dasturini davom ettirish dilemmasiga duch keldi. Shunga qaramay, bu davrda Pokiston yadroviy salohiyatga erishishda sezilarli yutuqlarga erishdi va mintaqaviy tanglikka javob sifatida yadro qurolini ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirdi. Fuqarolik yadroviy tashabbusidan boshlangan Pokistonning yadro dasturi 1998-yilda muvaffaqiyatli sinovlar bilan yakunlandi.

H.Abbos fikricha, 1970-yillardan to 1990-yillarning oxirigacha A.Q.Xon va XTL (Xon tadqiqot laboratoriyalari) ning, shuningdek, bizning nazdimizda, Pokiston yadro dasturining ham muvaffaqiyatini ta’minlab bergan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Professional aloqalardan keng foydalanish. A.Q.Xon va shuningdek, boshqa rahbarlar va olimlar ham o’zlarining G’arb davlatlaridagi tanish-bilishlaridan yadro dasturi manfaatlari uchun keng foydalanishgan. Masalan, PAEKning rahbari Munir Xonga ham uning avval XAEAda ishlagani juda qo’l kelgan;

2. Moliyaviy cheklovlarning bo’lmaganligi, ya’ni yadro dasturiga hukumat mablag’ni ayamaganligi;

---

<sup>46</sup> Chakma B. Road to Chagai: Pakistan’s Nuclear Programme. It’s Sources and Motivations. Modern Asian Studies 36, 4 (2002), pp. 871-912. 2002 Cambridge University Press  
DOI:110.1017/S0026749X02004043. - P 896.

3. Eksport nazoratining monitoringi va uning tizimli tarzda buzilishi. Kerakli asbob-uskunalar va ehtiyot qismlarni A.Q.Xon va yadro dasturiga oid boshqa tuzilmalar eksport cheklovlarini cheklab o’tgan holda qo’lga kiritishgan;

4. Cheklovlar va sanksiyalar sharoitida olimlar ko’plab kerakli mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqarishni yo’lga qo’yishga muvaffaq bo’ldi;

5. Soxta kompaniyalar va taniqli pokistonlik tadbirkorlardan keng foydalanish;

6. Xorijdagi Pokiston elchixonalarining ham ushbu faoliyatga jalb qilinganligi. Ular Germaniya, Birlashgan Qirollik, Fransiya, Kanada, Italiya kabi davlatlardan ehtiyot qismlar va asbob-uskunalarni yashirincha sotib olish va Pokistonga yetkazish bo’yicha PAEK va KRLga katta yordam ko’rsatgan;

7. OAVdan foydalanish. Xalqaro hamjamiyatning e’tiborini chalg’itish maqsadida OAVdan samarali foydalanilgan;

8. Maxfiylik, samarali boshqaruv va ishchi xodimlarning moliyaviy manfaatdorligi.

Pokiston yadro dasturining zamonaviy bosqichi 2000-yildan keyingi davrni o’z ichiga oladi. Sinovlardan so’ng Pokiston o’zining yadro texnologiyasini, jumladan, taktik yadro qurollari va yetkazib berish tizimlarini ishlab chiqishda davom etmoqda. Shu bilan birga, mamlakat yadroviy arsenalini nazorat qilish va uning xavfsizligini ta’minlash uchun Milliy qo’mondonlik idorasi (MQI) tashkil etildi. MQI yadroviy dasturning kengayishi natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal qilib, qo’mondonlik va boshqaruv tuzilmasini yaxshilashni maqsad qilgan. Shuningdek, Pokiston o’z yadroviy dasturini saqlab qolgan bo’lsa-da, yadro qurolini tarqatmaslik bo’yicha xalqaro muzokaralarda ham faol ishtirok etib kelmoqda.

## **XULOSA.**

Xulosa tariqasida shuni qayd etish kerakki, Pokistonning yadroviy dasturi mintaqadagi milliy xavfsizlik va strategik muvozanatning muhim elementiga aylandi,

ayniqsa, Hindiston bilan munosabatlarda Pokistonning pozitsiyasi birmuncha mustahkamlandi. Xalqaro bosimlarga qaramay, mamlakat yadroviy salohiyatini rivojlantirishda davom etmoqda. Shuningdek, Pokiston yadroviy dasturi shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etishda davlat mustaqilligi qo’lga kiritilgan davrdan boshlab o’rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu tariqa, Pokistonning yadro dasturi ichki va tashqi omillar ta’siri ostida rivojlanib, beshta asosiy bosqichni bosib o’tdi:

1. 1947-1971-yilgacha bo’lgan davr - tinch maqsadlarda atom bosqichi yoki istaksiz bosqich;
2. 1971-1980-yilgacha bo’lgan davr - izlanishlarni chuqurlashtirish bosqichi;
3. 1980-1998-yilgacha - yadro qurolining yaratilishi va yadroviy chegarani bosib o’tish davri;
4. 1998-yil - yadroviy sinovlar o’tkazilish bosqichi;
5. Zamonaviy bosqich - 2000-yillardan bugungi kungacha bo’lgan davr.

Ushbu bosqichlar Pokiston yadroviy dasturining turli omillar bilan belgilab berilgan murakkab rivojlanish yo’lini aks ettiradi.

Tarixiy ildizlarga e’tibor beradigan bo’lsak, Pokistonning yadroviy dasturining harbiy yo’nalishi Hindistonning yadroviy ambitsiyalariga javoban 1970-yillarda shakllana boshlagan. Hindistonning yadroviy dasturi Bo’linish voqeasidan boshlangan Pokiston milliy xavfsizligiga tahdid hissini yanada kuchaytirdi va yadro dasturini rivojlantirish uchun katalizator bo’ldi. Yadro dasturi milliy xavfsizlik va Hindistonga qarshi strategik tiyib turishni ta’minlashning muhim elementi sifatida qabul qilindi. Pokiston yadro qurolini potentsial tajovuzdan himoya va o’z suverenitetini mustahkamlash yo’li sifatida ko’rdi. Shuningdek, yadro dasturi tarixining eng muhim jihatı bu - yadro arsenalini yaratish jarayonida Pokiston o’zining ilmiy va texnologik resurslarini rivojlantirdi. Bir qator ilmiy muassasalarning tashkil etilishi va xorijiy davlatlar ko’magi bilan yuqori malakali kadrlarning yetishtirilishi mamlakatda yadroviy soha

mutaxassislarining butun bir avlodi paydo bo’lishiga olib keldi. Shuni ham qayd etish kerakki, yadro dasturini rivojlantirish davomida Pokiston muttasil xalqaro bosim va sanksiyalarga duch keldi, biroq, bu Pokistonning yadroviy tadqiqotlar va sinovlarni davom ettirish qarorini kuchaytirdi. 1998-yil maydagi yadro sinovi yadro arsenalini yaratish bo’yicha ko‘p yillik sa’y-harakatlarning yakuni bo’ldi. Ushbu sinovlar Pokistonning yadroviy davlat maqomini mustahkamladi va Janubiy Osiyodagi kuchlar muvozanatini o’zgartirdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Kasuri Kh. M. Neither a Hawk nor a Dove: An Insider’s Account of Pakistan’s Foreign Policy. Oxford University Press, Pakistan 2015.
2. Aman A., Ullah A. Mountbatten and «Moth-eaten Pakistan»: A case Study of the Partition of Punjab. Russian Law Journal, Volume XI (2023) Issue 13s.
3. Khan F.H. Eating Grass. The Making of the Pakistani Bomb. Stanford University Press. Stanford, Californiya. 2012.
4. Zaman A. The Troubled Pakistan-US relationship: a Diplomatic History, 1947-2012. Thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy in Politics. University of East Anglia, School of Politics, Philosophy, Language and Communication Studies. Norwich, 2014.
5. Paul T.V. Why has the India-Pakistan Rivalry been so enduring? Power Asymmetry and an Intractable Conflict. Security Studies, 15: 4.
6. Abbas H. Pakistan’s Nuclear Bomb: A Story of Defiance, Deterrence and Deviance. 2018.
7. Tellis A.J. Striking Asymmetries. Nuclear transitions in Southern Asia. Carnegie Endowment for International Peace. 2022.
8. Veda V.N. Pakistan’s Nuclear Weapons. Centre for Air Power Studies, New Delhi. 2012.
9. Speech by Lt. Gen. (Retd) Khalid Kidwai, Advisor, National Command Authority and Former DG SPD, on 25th Youme-e-Takbeer. May 26, 2023. <https://issi.org.pk/speech-by-lt-gen-retd-khalid-kidwai-advisor-national-command-authority-and-former-dg-spd-on-25th-youme-e-takbeer/>. 25.09.2024
10. Mian Z. Fevered with Dreams of the Future: The Coming of the Atomic Age to Pakistan. Published in South Asian Cultures of the Bomb, Itty Abraham, ed., Indiana University Press, Bloomington, 2009.
11. Ahmed M. Pakistan’s Pathway to the Bomb. Ambitions, Politics and Rivalries. Georgetown University Press, 2022.
12. Fair C.C. Fighting to the End. The Pakistan Army’s Way of War. Oxford University Press, 2014.

13. Khan A.Q. Unsung Heroes. <https://www.thenews.com.pk/print/17884-unsung-heroes> from 12 January 2015.
14. Clary C.O. The A.Q.Khan Network: Causes and Implications. Submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of MA in National security Affairs from the Naval Postgraduate School, 2005.
15. Levy A. Scott-Clark C. Deception. Pakistan, The United States, and the Secret Trade in Nuclear Weapons. Walker & Company, New York.
16. Chakma B. Road to Chagai: Pakistan’s Nuclear Programme. It’s Sources and Motivations. Modern Asian Studies 36, 4 (2002), pp. 871-912. 2002 Cambridge University Press. DOI:110.1017/S0026749X02004043.